



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	O‘zbek va qozoq tillaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.	
15	Mohinur USMONOVA, O‘zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg‘un birikmalarning qiyosiy tahlili	541
16	Hayotxon SALAYEVA, Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida	544
17	Mufassal PARDAYEVA, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi	547
18	Серик ТУРПАНАЛИЕВ, Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты	551
19	Amina DEHQONOVA, O‘zbek va nemis ertaklarida xalqona an‘analar	554
20	Dilrabo KOMILOVA, Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig‘ida ishlatiladigan so‘zlar	558
21	Mohinabonu YUNUSOVA, Toshkent viloyati uyg‘ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari	561
22	Marjona MUSULMONOVA, Boysun tumani bog‘dorchilik leksikasi	565
23	Barchinoy TOSHPO‘LATOVA, Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi	565
24	Moxlaroyim NAZAROVA, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini	574
25	Fotima KOMILOVA, O‘zbek-turk qarg‘ishlarning mifopoetik talqini	576
26	Shohsanam NOMAZOVA, Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va “Sanamgul” dostonidagi obrazlar	580
27	Muhtarama MAMITOVA, Oila mavzusi bilan bog‘liq ayrim o‘zbek va turk maqollarining tipologik tahlili	583
28	Lobar QULDASHEVA, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati	587
29	Sunbula HABIBULLAYEVA, “Shirin va Shakar” dostonida fonetik dialektizmlarning o‘rni (qo‘llanishi)	590
30	Nilufar TURG‘UNOVA, Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari	594
31	Sarvinov RAXIMOVA, G‘ijduvon sandiqsozlik so‘zlari	597
32	Aziza ELMIRZAYEVA, Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko‘chim uyg‘unligi	599
33	Diyora NE‘MATOVA, Folklorida til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	605
34	Hanifa XODJIYEVA, Mavsumiy marosimlar tasnifi	611
35	Husniddin AZIMJONOV, Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida bilga xoqon obrazi	614
36	Sitora O‘KTAMOVA, Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati	617

YANGIBOZOR (XORAZM) SHEVASIDAGI KIYIM-KECHAK SAVDO-SOTIG'IDA ISHLATILADIGAN SO'ZLAR

VOCABULARY USED IN CLOTHING TRADE IN THE YANGIBOZOR (KHOREZM) DIALECT

Dilrabo KOMILOVA,
TOSHDOTAU magistranti
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/CLRA7451

Annotation. *This article analyzes the words used in clothing trade and sales in the Yangibozor (Khorezm) dialect. It explains the meanings of dialectal words and illustrates them with examples. Words related to prices and bargaining, the vocabulary used by buyers and sellers, as well as the names of people and places involved in the trading process are analyzed in general.*

Key words: *Dialect, trade, clothing terms, buyer's vocabulary, seller's vocabulary, names of people involved in the trading process.*

Shevalar tilimizning bebaho xazinasi hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa, leksikada ko'proq namoyon bo'ladi. Shu boisdan ham shevalar tilimiz lug'at boyligini oshirishda muhim ahamiyatga ega, shuningdek "Til korpus"ini yaratishda alohida obyekt bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, S.Ashirboyev ta'kidlaganidek: "Har bir xalq o'z mahalliy shevalarida muloqot yuritadi, binobarin, xalq o'z shevasi bilan birga yashaydi va sheva ham xalqning butun borlig'ini moddiy va ma'naviy dunyosini, his-tuyg'ularini ifoda qiladi hamda bu jarayonda u to'xtovsiz rivojlanish sari faoliyatda bo'ladi va boyib boradi" [Ashirboyev, 2021:3]. Darhaqiqat, shevalar til zaxiramizning asosi hisoblanadi. Shu qatorda Xorazm shevalari ham o'zining serqirraligi bilan ahamiyatlidir.

Savdo jarayonlari xalq hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Savdo munosabatlarida, albatta, har bir hudud aholisi o'zi yashab kelayotgan hudud atrofidan savdo qilargan ekan, bu jarayonlarda o'z shevasidan foydalanadi. Shuni ham borki, savdo jarayonlariga bugungi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ham o'z ta'siri ko'rsatadi. Bu o'zgarishlar tilning leksik sathiga ham ta'sir qiladi. Sheva vakillari tomonidan bunday so'zlar to'g'ridan to'g'ri yoki qisman o'zgarishlarga uchragan holda ishlatilishi mumkin. Jumladan, Yangibozor (Xorazm) shevasi savdo munosabatlarida ishlatiladigan so'zlarni tadqiq etish jarayonida shu narsalarga ham guvoh bo'lamiz. Quyida savdo munosabatlarida ishlatiladigan ba'zi so'z va so'z birikmalarini keltirib o'tamiz:

Narx va savdolashuvga oid so'zlar:

ničča sōm? - "narxi qancha?" degan ma'noni anglatadi. Bu so'z orqali xaridor mahsulot tannarxini so'ragan bo'ladi: *Hāj, maņa qaraņ. Minav nārsā ničča sōm ākān, ajtavariņ?*

nerniki? - "qayerniki?". Bu so'z mahsulotning qayerda ishlab chiqarilganligini bilish uchun qo'llaniladi: *Aya, nerdān kegān ākan imbi važ. Bi idišdi sōriman, nerniki?*

njüvvīdan böyan/navvīdan böyan? - "nimadan tayyorlangan" degan ma'noni bildirib, mahsulotning tarkibi haqida ma'lumot olish uchun so'raladi: *-Sarhimlariņiz njüvvīdan böyan/navvīdan böyan?*

-Körävāriņ, ničiki kārāk sizā, plasmasma, temirmä, hāmmasinnān ba, ajtavāriņ. niččallim/niččaklim alasiz? - "qancha miqdorda olasiz?". Bu savol, asosan, sotuvchi tomonidan berilib, xaridning qancha miqdorda bo'lishini aniqlab olish uchun ishlatiladi: *Ajpa, gaširdan niččallim/niččaklim alasiz? Ajtsaņiz ölcivärämān, pajiņizam qōšip bārämān,*

pitta qajtiņ! - "biroz qayting". Bu so'zdan xaridor sotuvchidan mahsulot narxini biroz kamaytirishni so'raganida qo'llaniladi: *Qimmat ajttiņiz, pitta qajtiņ indi, ajlanip keldik jenām janiņiza;*

mīšajt etmāq- “halal bermoq”. Bu jumla savdo munobatlarida, asosan, mahsulotning noqulaylik tug'dirmasligini bilish maqsadida ishlatiladi: *Etāgi uzun ākan, mīšajt etmimā, mīni sāl kāltālari yōqmikān, qarap kōriņ. Rāzmerām tuvri kelmādimi āj?*

Savdo jarayonlarida ishtirok etuvchi shaxslarga oid so'zlar:

Dūxijči – atir-upa buyumlarini sotadigan shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Bunda dūxi so'zi rus tilidan o'zlashgan bo'lib, atir ma'nosini anglatadi. Bu so'zga o'zbekcha so'z yasovchi -chi affiksi qo'shilib, shaxs oti yasalgan. Bunday so'zlarga yana **bazarči** –savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan odam. Bazar so'zi fors tilidan o'zlashgan bo'lib, “narxlar belgilanadigan joy” yoki “ odamlar yig'iladigan joy” ma'nolarini anglatadi. **Dūkānči** – savdo jarayonlarida, asosan, yopiq joyda savdo qiladigan shaxsni anglatadi. Bu so'z arab tilidan o'zlashgan bo'lib, “sandiқ” yoki “savdo rastasi” ma'nolarini bildirgan. **Arvači** – savdo munosabatlarida sotuvchilarga hamda xaridorlarga mahsulotlarni tashish va yetkazish uchun xizmat qiladigan shaxsni anglatadi. Arva so'zi turkiy tildan kelib chiqqan bo'lib, turkiy xalqlarda yuk tashish vositasi (ikki g'ildirakli baland arava)ni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu so'z hatto boshqa tillarga ham o'tgan. Masalan, rus tilidagi “apбa” so'zi aynan turkiy arava so'zidan o'zlashgan. Yuqorida keltirilgan so'zlardagi shaxs oti yasovchi –chi affiksining tarixi XI asr tilshunosi M.Koshg'ariyning “Devoni”ga borib taqaladi. Bu tilshunos –chi qo'shimchasini shaxs kasbini anglatuvchi affiks deb hisoblaydi [Qurbonova, 1995:59].

Savdoga oid iboralar:

Bazarīñizi bārsin! – savdo ishlaringiz yurishsin, mahsulolaringiz xaridorgir bo'lsin, degan ma'nolarda qo'llaniladi. *Dīm jaxši etip berdiñiz, klentiñiz bōlāmiz indi, jenām kesāk sizdān olovaramiz, bazarīñizi bārāvārsin! (Yangibozor shevasidan);*

Öjnüp-kūlip işlätin! – mazza qilib foydalaning, yaxshi kunlaringizda xizmat qilsin, degan ma'noni ifoda etadi. Bu birikmadan, asosan, sotuvchilar tomonidan xaridor savdo jarayonini amalga oshirgach foydalaniladi. *Razī bōlip ketiñ, öjnüp-kūlip işlätin. Hāli jenām kelāsiz, qaravli nārsā bi dīm. Ajtvadi disiz hāli māni, qarap turiñ. (Yangibozor shevasidan);*

Jenām kelip turiñ! – kelasi safar ham bozor qilganda mening mahsulotlarimdan xarid qiling, yana savdo qilish uchun keeling, degan ma'noni bildirib, asosan, xarid yakunlanganida sotuvchining xaridorga murojaat qiladigan shakli hisoblanadi. *Ajtqanizdiñ salip berdim, jenām kelip turiñ, indigi sapar minnanam arzan etip berāmān, aya. Qōliñiz bārākāli kelsin, ilojim!*

Yangibozor (Xorazm) shevasida ifodalanuvchi kiyim-kechak mahsulotlari nomlari:

1. Ustki kiyimlarga oid mahsulot nomlari.

Kaston-čalvīr – kostyum-shim ma'nosini anglatadi. Ushbu mahsulot juft so'z bo'lib, kostyum so'zi o'zbek tiliga rus tilidan, rus tiliga esa fransuz tilidan o'tgan. Čalvīr so'zi shim so'ziga to'g'ri kelib, bu so'z mo'g'ul tilidan o'zlashgan. *Kaston-čalvīrlarimiz dīm sipatli, türkjadān kegān. Sizā dīm bir jarašdi lakini, alavariñ, öjlānmāñ. (Yangibozor shevasidan);*

Rübāškā – bu tur mahsulot, odatda, yoqali, klassik uslubdagi ustki kiyim ma'nosini bildiradi. Bu so'z sheva vakillari tiliga rus tilidan o'zlashgan. *Maña ijsū rübāškāñizi xijli-xijlisinnan tavip beriñ. Bajīm bir hāzzetip kijsin, dīm bir jelvāgāj ākān sahana. (Yangibozor shevasidan);*

Plašōpka – asosan yomg'ir va shamolli sovuq kunlarda kiyish uchun mo'ljallangan yengil ustki kiyim. Ushbu so'z o'zbek tiliga va shevalariga rus tili orqali kirib kelgan. *Qara rāñli plašōpkañiz bōlsa beriñ. Axir šu rāñ ōñajli bīzārā (Yangibozor shevasi);*

Spartīnnij – yengil sport kiyimlari ma'nosida ishlatiladigan so'z. Ushbu so'z ham rus tili orqali o'zlashgan. *Verā-berā barmaqa ōñajli bōliši üçün bir spartīnnij almaqa kelvādim, šuñā kōrsatiñ qani bir jaxšisinnan. (Yangibozor shevasi);*

Guppī – bu so'z “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “Qalin paxtali chopon, to'n” deb berilgan. Biroq, shevada bu so'z yengsiz, qalin kiyim ma'nosini ham bildiradi: Guppīlariñiz yaxšima? Bugungi kunda bu so'zning ma'nosiga chetdan o'zlashtirilgan žaket (fr. jaquette – kalta ust kiyim; kurtka) ham iste'molda qo'llaniladi. Xorazm shevalarining ba'zilarida içmāk so'zi ham shu ma'nodagi kiyim turi sifatida qo'llaniladi. Bu so'z “Devon”da ham mavjud: “içmāk –qo'zi

terisidan qilingan po'stin" deb berilgan ["DLT" I, 127]. *Guppi alsam paxtalisinan alaman devädim. Şunä bir bazara barip keliş käräk. (Yangibozor shevasi);*

Jiletkä – yengsiz nimcha, yunli va yunsiz ko'rinishlari mavjud. *Jiletkä älsäniz römal qöşip berämiz. (Yangibozor shevasi);*

Paplin – shu nomdagi matodan bo'lgan kiyim turi, asosan, yoz mavsumida kiyiladi. *Xijlisinnan paplinlar bar. Dīm arzan, tiktirsanizam šu pila tuşäsiz, äpkä. (Yangibozor shevasi);*

Kurta – yosh bolalar uchun mo'ljallangan, ichiga paxta solib tikiladigan, tugmasiz ust kiyim bo'lib, asosan, sovuq ob-havoda kiyiladi. *Balaya kurta kijgiz, tönädī. (Yangibozor shevasi);*

2. Bosh kiyim mahsulotlari nomi.

Taxja – bu bosh kiyim tushunchasini anglatuvchi so'z erkaklar uchun ham, ayollar uchun ham birdek qo'llaniladi. Taxja so'zi Xorazm shevalariga arab tilidan o'zlashgan bo'lib, tilimizda milliy naqshli do'ppilarni anglatadi. *Maņa qara satuvči balam, maņa bir birč gülli taxjañnan tavup ber, özīmki dīm tözdī. (Yangibozor shevasi);*

Töppi – odatda sovuq ob-havoda kiyish uchun mo'ljallangan bosh kiyimi bo'lib, qalin material va charm mahsulotlaridan tayyorlangan tavar ma'nosini bildiradi. *Qış kevätir qalınraq bir töppi almaqa kevädim. Körsatasama maņa šu jaxšisinnan. (Yangibozor shevasi);*

Pöpaq – sovuq iqlim paytida kiyish uchun mo'ljallangan, adatda, qo'yning terisidan tikiladigan bosh kiyimi. *Pöpaqlariñi isi bardij. Qarap satış käräk axir satqanya göra. (Yangibozor shevasi);*

Şäpkä – shlyapa so'zining xalq tilida fonetik o'zgarishga uchragan shakli bo'lib, atrofi yoki faqat old tarafi soyabonli bosh kiyim. *Şäpkän niçä sōm äkän, jölīm tuşkändä alip ötäyajin. (Yangibozor shevasi);*

Pöta – ro'molning qalinroq va issiqroq turi, shu boisdan ham qishda ko'proq savdosi yaxshi bo'ladi. *Pöta bölsa äslinnän alyan jaxši, vuni bilžäq bölsañ üzüktän ötirip kör, balam. (Yangibozor shevasi);*

Läčäk – qadimda Xorazm ayollari boshlariga shu ro'mol turini o'ragan. Bugungi kunda Xorazm ayollari nutqida katta ro'molni bildiradi. *Läčäkdäy äkän, šu gälingä alsan bölar, kelişikli etip öridi jäşlär minī. (Yangibozor shevasi);*

3. Oyoq kiyim mahsulotlari nomi.

Massi – mahsi so'zining Xorazm shevalarida fonetik o'zgargan shakli bo'lib, uzun qo'njli (boldirni yopib turuvchi), charm yoki qo'y va echki terisidan tayyorlanadigan milliy oyoq kiyimi. Bu tur mahsulotning ayollar va bolalar uchun ham turlari mavjud. *Massi alsaq ayaq tönmidī amdallī, janiñi häzi bi harap. (Yangibozor shevasi);*

Patinka – yengil oyoq kiyimlariga, xususan, tuflilarga nisbatan ishlatiluvchi shevaga oid so'z. *Patinkanī apparsam apam maņa bajyazī berär axir, taza važ apsan dep. (Yangibozor shevasi);*

Krasöpka – asosan sport oyoq kiyimi bo'lgan kroosovka so'zining fonetik o'zgarishga uchragan shakli. *Bavli krasöpkan alžaq idim, läkinli qarasam šäppiklisi čiqipti'yöj. Indi šunnänäm bir apkörīk. (Yangibozor shevasi);*

Yangibozor (Xorazm) savdosidagi kiyim-kechak nomlarini o'rganish orqali ushbu shevaga xos xususiyatlar, uning adabiy tilga munosabati, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar orqali shevaga o'zlashgan so'zlarning shakli va o'rni tahlil qilindi. Bu orqali shevalarimizning naqadar serqirra ekanligi, ularning adabiy til hamda til korpusini yaratish uchun manba bo'lib xizmat qilishi uchun zarur ekanligi bayon etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 3.
2. Koshg'ariy M. Devonu lug'ati-turk. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2017. – B. I, 127 – 30 (Nashrga tayyorlovchi: Qosimjon Sodiqov)
3. Qurbonova M. O'zbek shevalarida "-chi" affiksining so'z yasovchilik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1995. – B. 59.